


JIZZAX VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

2021- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)




Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalarini tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021-yil 1-sentabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2021- yil yanvar - avgust oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar- avgust oylarida, birlikda)




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar



(1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda)




Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **27,2** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish
 ■ O‘rmon xo‘jaligi
 ■ Baliqchilik xo‘jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2021-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **19,6 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



142

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

3 609

Ishlab chiqarish sanoati

17

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

42

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2021-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 3 810 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 119,6 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 120,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 94,7 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 106,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 3,7 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 121,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,4 %) o'sishidir va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish – 110,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,1 %) kuzatildi.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **7,8** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




7,9 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




11,4 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




14,3 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



22,2 foizga oshdi



Xususiy korxonalar




3,8 foizga kamaydi




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni





Xususiy korxonalar





Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra 1 797 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 651 taga yoki 56,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 636 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 560 taga yoki 52,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 446 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 78 taga yoki 21,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra 13 775 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 902 taga yoki 26,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 13 176 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 690 taga yoki 25,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 323 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 509 taga yoki 28,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.





Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra 228 tani tashkil etib, ulardan 224 tasi yoki 98,2 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 37 taga yoki 19,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-avgust oylarida Jizzax viloyatida 21 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



97

yashash bo'yicha xizmatlar



1 339

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 436 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 19,8 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 20,7 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 93,2 %), yashash bo'yicha xizmatlarning - 7,8 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 6,8 %) o'sishidir.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

13



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	73	106	177	191	224
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	5	17	27	28	40
Sanoat	56	63	101	105	122
Qurilish	2	3	10	9	11
Savdo	4	13	21	28	28
Tashish va saqlash	3	3	5	4	6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	-	1	5	4	3
Axborot va aloqa	1	1	3	3	3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-	1	2
Boshqa turlar	2	5	5	9	9

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

■ O'sish sur'ati ■ 2021- y. ■ 2020- y.



Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)


	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Jizzax viloyati	224	144	80
Jizzax shahri	70	47	23
tumanlar:			
Arnasoy	8	5	3
Baxmal	10	7	3
G'allaorol	22	15	7
Sharof Rashidov	20	12	8
Do'stlik	7	4	3
Zomin	16	8	8
Zarbdor	4	3	1
Zafarobod	10	3	7
Mirzacho'l	5	2	3
Paxtakor	8	7	1
Forish	31	24	7
Yangiobod	13	7	6

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Jizzax shahrida 70 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 31,3 %), Forish tumanida 31 ta (13,8 %), G'allaorol tumanida 22 ta (9,8 %), Sharof Rashidov tumanida 20 ta (8,9 %), Zomin tumanida 16 ta (7,1 %), Yangiobod tumanida 13 ta (5,8 %) hamda Zafarobod tumanlarida 10 ta (4,5 %) ni tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

16



2021-yil 1-sentabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Jizzax shahri (29,0 %), Sharof Rashidov (15,5 %), G'allaorol (8,5 %), Zomin (7,9 %), Forish (7,1 %), Baxmal (6,1 %), Zarbdor (4,8 %), Paxtakor (4,5 %), Do'stlik (4,3 %), Mirzacho'l (3,7 %), Arnasoy (3,3 %), Zafarobod (3,0 %) va Yangiobod (2,3 %) tumanlari hissalari to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2021-yil yanvar-avgust oylarida, birlikda)

2021-yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Jizzax shahrida (26,2 %), Sharof Rashidov (15,0 %), G'allaorol (10,0 %), Zomin (8,1 %), Baxmal (7,6 %), Forish (7,4 %), Paxtakor (5,0 %), Do'stlik (4,8 %), Zarbdor (4,7 %), Mirzacho'l (3,5 %), Arnasoy (3,2 %), Zafarobod (2,4 %) va Yangiobod (2,1 %) tumanlari ulushiga ega.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Jizzax shahrida (34,4 %), Sharof Rashidov (19,4 %), Zomin (6,9 %), Baxmal (6,3 %), G'allaorol (5,8 %), Forish (5,7 %), Zarbdor (4,3 %), Do'stlik (4,3 %), Arnasoy (3,2 %), Mirzacho'l (3,1 %), Paxtakor (3,1 %), Zafarobod (1,9 %) va Yangiobod (1,6 %) tumanlari hissasiga tegishli.

Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi (2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)


18



2017- 2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2021- yilning yanvar - avgust oylarida, birlikda)



2021- yil yanvar- avgust oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Jizzax shahrida (28,9 %), G'allaorol (19,5 %), Sharof Rashidov (14,6 %), Paxtakor (14,3 %), Zarbdor (6,1 %), Zomin (4,7 %), Do'stlik (3,6 %), Baxmal (3,4 %), Mirzacho'l (2,7 %), Zafarobod (0,9 %), Yangiobod (0,7 %), Forish (0,4 %), Arnasoy (0,2 %) tumanlari ulushni qayd etadi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2021- yil yanvar - avgust oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar


Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri axborot - ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz va Jizzax viloyati statistika boshqarmasining www.jizzaxstat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Jizzax viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: 72 221-51-24